



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



INGLIZ TILIDA NOTIQLIKNI RIVOJLANTIRISH

Nosirova Surayyo

A first-year student at the Uzbekistan State World Languages in the Faculty of Philology and Teaching English, located in the Uchtepa district of Tashkent

Phone number: +998998113530

Email: surayon8@gmail.com

Annotatsiya: Bugungi kunda til o'rganuvchi yoshlar ortasida kuzatilayotgan eng kata muommalardan biri bu-so'zlasha olish ko'nikmasining pastligi. Bu jarayon notiqlik bilan bevosita bog'liq bo'lib, omma oldida hayajonlanish, til aksentini yaxshi o'zlashtirmaganligi, yetarlicha so'z boyligiga ega emasligi kabi muommolar tufayli yuzaga keladi.

Аннотация: Одной из самых больших проблем, наблюдаемых сегодня среди молодых людей, изучающих язык, является низкий уровень разговорных навыков. Этот процесс напрямую связан с публичными выступлениями и вызван такими проблемами, как недостаток благосостояния.

Annotation: One of the biggest problems observed among young people learning languages today is the lack of speaking skills. This process is directly related to oratory and arises due to issues such as nervousness in front of an audience, not mastering the language accent properly, and having an insufficient vocabulary.

Kalit **so'zlar:** *Interfaol* *usullar, native speaker, podcast, innovatsiya, muloqot, notiqlik, omma oldidagi hayajon*

Ключевое слово: *Интерактивные методы, носитель языка, подкаст, инновация, коммуникация, ораторское мастерство, красноречие, волнение перед публикой.*

Key words: *Interactive methods, Native speaker, Podcast, Innovation, Communication, Oratory, eloquence, Excitement in front of the public.*

Bugungi kunda ikkinchi til sifatida ingliz tilini o'rganayotgan yoshlar soni toboro ortib bormoqda. Ma'lumotlarga ko'ra, hozirda butun dunyo bo'ylab ingliz tilini o'rganuvchilar soni 1,5 milliardni tashkil etmoqda. Va aynan shu til o'rganuvchilarning ko'pchiligida o'z nutqini hamkasbiga chiroyli yetkazib berolmaslik muommosi uchraydi. Bu esa ikki inson o'rtasidagi tushunmovchilikka sabab bo'lishi ham mumkin. Aynan shu kabi muommolarning yechimi sifatida ular o'z ustida ma'lum tavsiyalar asosida ishlan ko'nikmarini oshirishi kerak. Barchaga ma'lumki, tilda noto'g'ri talaffuz qilish shaxs fikrini to'g'ri yetkaza olmaslikka sabab bo'ladi. Talafuzni yaxshilash uchun esa nusxa olish usuli katta yordam beradi. Bu jarayon shunday sodir boladi: til o'rganuvchi o'rganayotgan tilida gapiruvchi biror „native speaker“ning nutqini tanlab oladi, va xuddi soyadek uning nutqini ovozini chiqarib takrorlaydi. Aynan mana shu jarayon kamida bir oy davom etsa, talaffuzdagi muommolar ko'zga ko'rinarli darajada kamayadi. Bu speakerlarni turli platformalardan



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



toppish mumkin. Masalan, Youtubeda Ted Talks, BBCnews channels kabi manbalar mavjud. Va Spotify, Apple Podcastsda „The English We Speak“, „Luke’s English Podcast“ kabi tillarni o‘rgatishga qaratilgan podcastlar talaffuzni yaxshilash uchun ham ancha yordam beradi. Shuningdek, Netflix orqali kinolarni va seriallarni tomosha qilib ham talaffuzni yaxshilash oson. Bu usullar an’anaviy tarzda berilgan tavsiyalardan-nutqingni rivojlantirish uchun o‘sha davlatga borib, kamid aolti oy yashab kel-ancha qulayroq. Bu ta’limdagi innovatsiyadir. Innovatsiya- ingliz tilidan olingan bo‘lib, yangilik yaratish, yangilik kabi ma’noni anglatadi. Demak, an’anaviy ta’limdagi kabi bir xil qoidalar asosida emas, balki yangiliklar asosida ta’lim jarayonining ta’sirchanligini oshirishga qaratilgan ish shaklidan foydalanish innovatsiya demakdir. Ta’limda pedagogik texnologiyalarga asoslanish va innovatsiyaga intilish, o‘quvchilarni faollashtirishga qaratilgan turli interfaol uslublardan foydalanish ta’lim maqsadini samarali amalga oshirishga yordam beradi. Bundan tashqari, til o‘rganuvchilarda omma oldida hayajonlanish o‘ta kuchli boladi. Nutqini eshituvchiga aniq va ravon yetkazib bera olmaydi. Muloqot qilishda fikrlarini yetkazib berish o‘ta muhim. Murakkab jumlar, uzun so‘zlardan ko‘p foydalanish oqibatida gap mazmuniga putur yetkazib qoyish holatlari ko‘p uchraydi va natijada suhbatni o‘ta zerikarli qilib qo‘yadi. Suhbatdoshning xayoli chalg‘iy boshlaydi va gapiruvchi o‘zini noqulay his qiladi, qo‘rquv paydo bo‘ladi. Natijada butun boshli jumalarni unutib qo‘yadi. Bu til o‘rganishdagi katta to‘siqdir. Ya’ni, yangi til o‘rganish jarayoni ba’zan kulgili yoki tushunmovchiliklarga to‘la bo‘lishi mumkin bo‘lsada, bu holatlarga e’tibor bermaslik lozim. Xatolarga yo‘l qo‘yish o‘quv jarayonining bir qismidir va ko‘pincha biz ushbu xatolar orqali o‘sib, rivojlanamiz. Bunday vaziyatlarda hijolat yoki tushkunlikka tushish o‘rniga, yangi narsa o‘rganish va kayfiyatingiz ko‘tarilishi uchun imkoniyat sifatida qarash lozim. Nafaqat ingliz tilida, balki boshqa tillarda ham erkin muloqot qilish qilishni o‘rganishning eng oson usullaridan biri shu tilni o‘rganayotgan hamroh topish va u bilan doimiy o‘rganayotgan tilida muloqot qilish va kunlik gapiradigan odatiy suhbatlarini inglizchaga o‘girish. Masalan, til o‘rganayotgan sherigi bilan oila davrasida ham inglizcha gaplashish, ko‘chada ham, metro, avtobusda, telefonda ham inglizcha suhbatlashish kerak. Kino ko‘rsa ham, musiqa eshitsa ingliz tilida amalga oshirish kerak. Mutlaq muhit shu tilda bo‘lsa, til o‘rganish jarayoni ancha tezlashadi. Agar mana shu jarayon ma’lum muddat majburan bajarilsa, keyin u odatga aylanadi. Odatlar inson hayotini shakllantiradi. Odatlarni o‘zlashtirish esa ko‘pincha vaqt va qat’iyat talab qiladi. Shu ma’noda, 21/90 chellenji ko‘pchilik orasida mashhur bo‘lib, insonlarga yangi odatlar hosil qilishda katta yordam beradi. Bu usulga ko‘ra, yangi odatni shakllantirish uchun 21 kun va uni mustahkamlash uchun qo‘shimcha 90 kun zarur. So‘ng yana 90 kun, ya’ni 3 oy yangi o‘rgangan odatini qo‘llasa, u keyingi hayotida doimiy hayot tarziga aylanib qoladi. Shu bilan birga ingliz tilida gaplashish o‘rganuvchining odatiy vazifasiga aylanadi.

Xulosa qilib aytganda, til o‘rganishda talaffuzning va notiqlikning ahamiyati katta. Ta’lim tizimi o‘z oldiga erkin fikrlovchi, barkamol, yetuk shaxsni tarbiyalashni vazifa qilib qo‘yar ekan, kelgusida biz bo‘lajak o‘qituvchilar innovatsion texnologiyalardan samarali





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



foydalanish yo'llarini yanada mukammalroq ishlab chiqshimiz bilan o'z hissamizni qo'shishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. H.T.Omonov, N.X. Xo'jayev, S.A.Madyorova, E.U.Eshchonov. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat".Iqtisodiyot-Moliya" Toshkent-2009
 - 2.Shomirzayev M. X. Developing educational technologiesin school technology education //Asian Journal of Multidimensional Research. – 2021. – T. 10. – №. 5. – С. 73-79.
 3. Bekmuratova U. B. “Ingliz tilini o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish” mavzusida referat. Toshkent — 2012 yil
 4. Отабоева, М. Р. Chet tilini o'qitishda zamonaviy innovatsion texnologiyalaridan foydalanish va uning samaradorligi / М. Р. Отабоева. — Текст: непосредственный, электронный // Молодой ученый. — 2017. — № 4.2 (138.2). — С. 36–37. — URL: <https://moluch.ru/archive/138/39058/> (дата обращения: 27.04.2020)
- 5 Oliygoh.uz